ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

SALJUQIYLAR DAVRIDA XORAZM DAVLATI

Polvonnazarov Shuhrat Polvonnazarovich
Urdu magistrant

doi.org/10.5281/zenodo.20514061

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saljuqiylar davlatining kuchayishi va inqirozi davrida Xorazm vohasining tutgan o‘rni hamda Xorazmshohlar sulolasining shakllanish tarixi tadqiq etiladi. Saljuqiy sultonlari davrida Xorazm viloyatining boshqaruv tizimi, tayinlangan noiblar (Anushteginiylar) va ularning markaziy hokimiyat bilan munosabatlarini tahlil qilgan. Maqolada Xorazmning iqtisodiy-geografik salohiyati va harbiy kuchi Saljuqiylar imperiyasining parchalanishi fonida mustaqil davlat barpo etilishiga qanday zamin yaratgani manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Saljuqiylar imperiyasi, Xorazmshohlar, Anushtegin Qutbiddin Muhammad, Otshiz, Sulton Sanjar, markaziy hokimiyat, noiblik, mustaqillik, geosiyosat.

Аннотация: В данной статье исследуется роль Хорезмского оазиса в период расцвета и упадка Сельджукской империи, а также история формирования династии Хорезмшахов. анализирует систему управления Хорезмским вилаятом при сельджукских султанах деятельность назначенных наместников (Ануштегинидов) и их взаимоотношения с центральной властью. На основе исторических источников в статье освещается, как экономико-географический потенциал и военная мощь Хорезма на фоне распада Сельджукского государства создали почву для обретения независимости.

Ключевые слова: Хорезм, Сельджукская империя, Хорезмшахи, Ануштегин Гарчаи, Кутб ад-Дин Мухаммад, Атсыз, султан Санджар, центральная власть, наместничество, независимость, геополитика.

Abstract: This article examines the role of the Khwarazm oasis during the rise and decline of the Seljuk Empire, as well as the historical formation of the Kharazmshahi dynasty. The analyzes the administrative system of the Khwarazm province under the Seljuk sultans the governance of the appointed governors (Anushteginids), and their relations with the central authority. Based on historical sources, the article highlights how Kharazm’s economic-geographical potential and military strength laid the foundation for establishing an independent state against the backdrop of the Seljuk Empire's fragmentation.

Keywords: Kharazm, Seljuk Empire, Kharazmshahs, Anushtegin Gharchai, Qutb al-Din Muhammad, Atsiz, Sultan Sanjar, central authority, governorship, independence, geopolitics.

O‘rta asrlar Sharq davlatchiligi tizimida Xorazmshohlar-Anushteginiylar saltanati o‘zining qudratli armiyasi, yuksak madaniyati va ulkan geosiyosiy ta’siri bilan alohida ajralib turadi. Biroq, ushbu yirik imperiyaning shakllanishi uzoq muddatli tarixiy jarayonlarning mahsuli edi. Davlat poydevori XI asrda, mintaqada Buyuk Saljuqiylar imperiyasi ustunlik qilgan davrda qo‘yildi. Xorazm dastlab Saljuqiylar saltanatiga tobe bo‘lgan chekka bir viloyat sifatida boshqarilgan bo‘lsa, keyinchalik markaziy hokimiyatning inqirozga yuz tutishidan unumli foydalanib, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi va mintaqaning yetakchi kuchiga aylandi. Ushbu o‘tish davrini tadqiq etish o‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti va uning evolutsion bosqichlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jarayonning mohiyati Saljuqiylar davrida Xorazm hududining siyosiy maqomi qay darajada o‘zgargani, Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi hamda ularning Saljuqiy hukmdorlari (ayniqsa, Sulton Sanjar) bilan olib borgan murakkab harbiy-diplomatik aloqalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. XI asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarida tub burilishlar davri bo‘ldi.

Mintaqada G‘aznaviylar qudratining pasayishi hamda Orol bo‘yi hududlaridan janubga tomon ko‘chgan o‘g‘uz-turkman qabilalarining (saljuqiylarning) faol harakati mavjud siyosiy muvozanatni butunlay o‘zgartirdi. Jumladan, 1040-yilgi Dandanaqan jangida To‘g‘rulbek va Chag‘ribek qo‘mondonligidagi saljuqiylar Sulton Mas’ud G‘aznaviy armiyasini tor-mor keltirdi. Ushbu g‘alaba Buyuk Saljuqiylar imperiyasining barpo etilishiga asos bo‘ldi. Saljuqiylar qisqa vaqt ichida Xuroson, Eron, Iroq va Ozarbayjon kabi ulkan hududlarni bo‘ysundirib, o‘z davrining eng qudratli islom saltanatlaridan birini barpo etishdi. Xorazm o‘zining strategik geografik o‘rni, Amudaryo bo‘yidagi dehqonchilik uchun qulay unumdor yerlari hamda Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ida joylashganligi sababli doimo imperiyalarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Saljuqiylar istilosigacha bu yerda G‘aznaviylar tomonidan tayinlangan hokimlar (Ma’muniylar va keyinchalik Altintosh avlodlari) “Xorazmshoh” unvoni bilan hukmronlik qilayotgan edi. Biroq, 1042–1043-yillarga kelib, Saljuqiy sultonlari To‘g‘rulbek va Chag‘ribek Xorazmni butunlay bo‘ysundirish maqsadida ushbu hududga tomon faol harbiy yurishlarni boshladilar. Xorazmning o‘sha davrdagi hukmdori, Altuntoshning o‘g‘li Ismoil Xandon saljuqiylarga qarshilik ko‘rsatishga urindi. Biroq ichki nizolar hamda dushman harbiy kuchlarining ustunligi sababli viloyat taslim bo‘ldi va Buyuk Saljuqiylar imperiyasining shimoli-g‘arbiy qismiga aylantirildi. Sulton Alp Arslon va Sulton Malikshoh davrida hududni saljuqiylarga sodiq noiblar boshqargan bo‘lsa-da, mahalliy xalq o‘zining mustaqillik g‘oyalaridan voz kechmadi. Keyinchalik qudratli saltatnatga asos solgan Anushteginiylar sulolasining ildizi turkiy elatlarga borib taqaladi. Sulola asoschisi Anushtegin G‘archoyi yoshligida qul qilinib, saljuqiy amir Bilge-tegin tomonidan sotib olingan edi. O‘zining zakovati, botirligi va sadoqati tufayli u sulton saroyida tezda yuqori mavqega erishdi. Malikshoh davrida u eng nufuzli lavozimlardan biri — tashtdorlik (hukmdorning ichimliklari va gigiyenasiga javobgar shaxs) darajasiga ko‘tarildi. Shundan so‘ng sulton unga Xorazmdan soliq yig‘ish hamda viloyatni iqto (shartli mulk) sifatida boshqarish huquqini berdi. Garchi Anushtegin u yerga shaxsan bormay, o‘z noiblarini jo‘natgan bo‘lsa-da, rasman yangi sulola poydevorini qo‘ygan shaxs sanaladi. Sulton Malikshoh va vazir Nizomulmulk vafot etgan 1092-yildan keyin imperiyada taxt talashish urushlari boshlanib, Xorazmda ham siyosiy beqarorlik yuzaga keldi. 1097-yilda Xuroson hokimi amir Dodbek Habashiy viloyatdagi tartibsizliklarni bartaraf etish uchun Anushteginning o‘g‘li Qutbiddin Muhammadni noib qilib tayinladi va unga qadimiy “Xorazmshoh” unvonini qaytarib berdi. Qutbiddin Muhammad uzoqni ko‘ruvchi va ehtiyotkor arbob edi. U saljuqiylarning o‘zaro urushlarida har doim g‘olib tomonni, xususan, Sulton Sanjarni dastakladi. Har yili Sulton saroyiga shaxsan borib, sadoqatini bildirdi va soliqlarni o‘z vaqtida topshirdi. Uning 30 yillik osoyishta boshqaruvi davrida Xorazm iqtisodiyoti tiklandi; Amudaryo bo‘ylarida ziroatchilik, hunarmandchilik va madaniy hayat qayta yuksaldi. Natijada u o‘g‘li Otsizga qudratli, tartibli va iqtisodiy jihatdan baquvvat davlatni meros qilib qoldirishga erishdi. 1127-yilda otasining o‘limidan so‘ng hokimiyatga kelgan Otsiz o‘zidan oldingi hukmdorlardan farqli o‘laroq, ulkan siyosiy maqsadlarga ega, botir va murosasiz yetakchi edi. U Xorazmning Saljuqiylar imperiyasiga qaram, oddiy bir o‘lka bo‘lib qolishiga tosh keltira olmasdi. Hukmronligining dastlabki davrida Otsiz Sulton Sanjarning g‘aznaviylar hamda qoraxoniylarga qarshi olib borgan urushlarida qatnashib, o‘zining sarkardalik qobiliyatini namoyon etdi. Biroq, ko‘p o‘tmay, u sulton bilan maslahatlashmay Sirdaryo bo‘ylaridagi qipchoq va o‘g‘uz qabilalariga qarshi mustaqil harbiy harakatlar boshladi. Natijada Jand va Mang‘ishloq kabi muhim strategik hududlarni Xorazmga bo‘ysundirdi. Otsizning bu mustaqillik harakatlari Sulton Sanjarda shubha uyg‘otdi va u 1138-yilda ulkan qo‘shin bilan Xorazm ustiga yurish qildi. Hazarasp qal’asi yaqinida yuz bergan to‘qnashuvda Otsiz mag‘lub bo‘ldi. Uning o‘g‘li Otlig‘ asirga olinib, sultonning buyrug‘i bilan qatl etildi. Sanjar Xorazm boshqaruvini o‘z jiyaniga topshirib ortiga qaytgach, Otsiz mahalliy xalqning qo‘llab-quvvatlashi (ko‘tarilish) evaziga hokimiyatni qaytadan o‘z qo‘liga oldi. 1141-yilda Markaziy Osiyo taqdirini o‘zgartirib yuborgan ulkan voqea sodir bo‘ldi. Sirdaryoning sharqidan bostirib kelgan g‘ayridin qoraxitoylar qo‘shini Samarqand yaqinidagi Katvan dashtida Sulton Sanjarning birlashgan islom lashkarini tor-mor keltirdi. Sulton Sanjar jang maydonidan arang qochib qutuldi. Yuzaga kelgan qulay vaziyatdan unumli foydalangan Otsiz darhol Xurosonga yurish qildi. U Saljuqiylarning muhim markazlari bo‘lgan Marv va Nishopur shaharlarini zabt etib, xutbalardan Sulton Sanjarning nomini olib tashlatdi va o‘z nomini yozdirdi. Garchi keyinchalik Sanjar o‘z mavqeyini qisman tiklab, Xorazmga yana ikki bor qo‘shin tortgan bo‘lsa-da, Saljuqiylar davlati o‘zining avvalgi qudratini butunlay yo‘qotgan edi. Otsiz hayotining so‘nggi yillarida qoraxitoylarga

yiliga 30 ming oltin dinor miqdorida soliq (bosh pors) to‘lashga majbur bo‘lsa-da, amalda mutlaqo mustaqil siyosat yuritdi. 1156-yilda tushkunlikka tushgan Sulton Sanjar ham, Xorazmshoh Otsiz ham ketma-ket vafot etishdi. Sanjarning o‘limi bilan Buyuk Saljuqiylar imperiyasining Xuroson tarmog‘i butunlay tugadi. Xorazm taxtiga o‘tirgan Otsizning o‘g‘li Tojiddin Elarslon (1156–1172) davrida esa Xorazm harbiy kuchi mintaqada yetakchiga aylanib, Xuroson hududidagi siyosiy jarayonlarga faol aralasha boshladi. Xorazmshohlar davlatini ulkan imperiya darajasiga olib chiqqan hukmdor Sulton Alouddin Takash (1172–1200) hisoblanadi. U hokimiyat tepasiga kelish uchun akasi Sultonshoh bilan uzoq yillar davomida taxt talashib, yakunda g‘alabaga erishdi. Sulton Takash davridagi eng muhim tarixiy burilish g‘arbiy Eronda hukmronlik qilayotgan Iroq Saljuqiylari bilan bo‘lgan yakuniy urush bo‘ldi. 1194-yilda Rey shahri yaqinida yuz bergan hal qiluvchi jangda Xorazmshoh Takash so‘nggi Saljuqiy sulton To‘g‘rul III ni mag‘lub etdi va To‘g‘rul III jang maydonida halok bo‘ldi. Uning kesilgan boshi Bag‘dod xalifasi An-Nosirga yuborildi. Ushbu g‘alaba Yaqin va O‘rta Sharqda asrlar davomida hukmronlik qilgan Saljuqiylar sulolasining siyosiy mavjudligiga butunlay chek qo‘ydi. Shundan so‘ng, Sulton Takash o‘zini mintaqaning eng oliy hukmdori deb e’lon qilib, Bag‘dod xalifasidan rasmiy sultonlik unvonini (yorlig‘ini) talab qildi. Garchi Xorazmshohlar Saljuqiylar hukmronligidan chiqib mustaqil bo‘lgan bo‘lsalar-da, davlat boshqaruvida ularning vazirlik va devonchilik tizimiga tayandilar. Xususan, mashhur vazir Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida bayon etilgan boshqaruv qoidalari poytaxt Gurganj (Ko‘hna Urganch) saroyida keng tatbiq etildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Saljuqiylar bilan aloqalar davrida Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida dehqonchilik va irrigatsiya tizimi yuksak darajaga yetdi. Xorazmning ipak matolari, qorako‘l terilari va ganchkorlik mahsulotlari butun musulmon dunyosida yuqori baholanardi. Gurganj, Jand va Kat kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylandi. Poytaxt Gurganj ilm-fan markazi sifatida ham shuhrat qozonib, bu yerda ulkan kutubxonalar faoliyat yuritdi. Saroy va madrasalarda o‘z davrining buyuk allomalari, jumladan, Abulqosim az-Zamaxshariy (mashhur tilshunos va adib), Faxriddin ar-Roziy (faylasuf va tabib), Ibn al-Asir (tarixchi) kabi olimlar ijod qildilar. Xorazm uchun Saljuqiylar imperiyasi tarkibida bo‘lish o‘ziga xos boshqaruv va harbiy strategiya maktabi vazifasini o‘tadi. Anushteginiylar sulolasi vakillari dastlab Saljuqiylarga sadoqat bilan xizmat qilib, tajriba to‘plagan edilar. Ilgariroq, Xorazmshoh Otsizning murakkab siyosiy vaziyatda (Saljuqiylar va Qoraxitoylar o‘rtasida) muvozanat saqlay olgani va ko‘rsatgan jasorati kelajakdagi mustaqillik uchun mustahkam poydevor bo‘lgan edi. Natijada, tarix sahnasida bir turkiy sulola (Saljuqiylar) o‘rnini ikkinchi bir qudratli turkiy sulola (Anushteginiy Xorazmshohlar) egalladi. 1194-yilda Saljuqiylar davlati tugatilgach, Xorazmshohlar islom olamining mutloq yetakchisiga aylandilar. Ushbu yuksalish XIII asr boshlarida, Alouddin Muhammad davrida o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqdi va imperiya sarhadlari Hindistondan to Anatoliya (Turkiya)gacha bo‘lgan ulkan hududni qamrab oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibn al-Asir. “Al-komil fit-tarix” (Mukammal tarix). Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006.
2. Shaxobiddin Muhammad an-Nasaviy. “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti”. Toshkent, “Sharq”, 1999.
3. Buniyotov Z.M. “Anushteginiylar — Xorazmshohlar davlati (1097–1231)”. Toshkent, “Fan”, 1998.
4. Az-Zamaxshariy. “Asos al-balag‘a”. Qohira, 1992.
5. Grousset, René. “The Empire of the Steppes: A History of Central Asia”. Rutgers University Press, 1970.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar. Toshkent, 2000–2006.